

RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING ISTIQBOLLARI

Jumayev Behruz Xayrulla o’g’li

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ekologiya fakulteti
Hayot faoliyati xavfsizligi yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

Oxunov Ravshan Zafarovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kunda ekologik muammolar va ularning inson hayot faoliyatiga ta'siri i va yechimlari haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Resurs, chiqindi, ekologik muammolar, mehnat muhofazasi, ifloslanish, hayot faoliyati xavfsizligi, inson, salomatlik.

Kirish: Bugungi kunda ekologik muammolar tabiatdagi tabiiy resurslarni barqaror rivojlanishga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishlarining oldini olish, ozon qatlamining yemirilishi, cho'llanish, atmosfera havosining ifloslanishi kabi global ekologik muammolarni hal etish hozirgi kunda insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatimizda ham atrof-muhit muammolarini o'rganish, ularni hal etish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda davlat tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish, o'simliklar va hayvonot dunyosini, atmosfera havosi va tabiiy resurslarni asrash hamda chiqindi muammolarini bartaraf etish, ekologik ta'limni joriy etishga qaratilgan e'tibor va bu borada me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Hech bir sanoat korxonasi yo'qki, kelib chiqishi, qaysi tarmoqqa mansubligi, qanday xomashyo ishlatishi, qaysi hududda joylashganidan qat'i nazar, atrof-muhitga muayyan darajada texnogen xavf tug'diradi. Ular faoliyati oqibatida tabiatda antropogen o'zgarishlar ko'payib boradi va yer yuzida global ekologik falokatlar ortadi. Ishlab chiqarish korxonalari chiqindilari ta'sirida so'nggi vaqtlarda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq turli ekologik o'zgarishlar yuzaga kelayotgani buning yorqin dalilidir. Bularning barchasi insonning hayot faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mavzuning dolzarbligi: Xodimlarning mehnat muhofazasi ta'minlanmagani, sanoat xavfsizligi bilan bog'liq bilimlar yetarli emasligi yoki ish paytidagi e'tiborsizlik natijasida ham avariya sodir bo'lishi kuzatiladi. Natijada atrof-muhitga ko'plab zararli moddalar tashlanadi, ishchilarning shikastlanishi, og'ir tan jarohati olishi va o'lim bilan bog'liq noxush holatlar sodir bo'ladi. Shu bois, oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlarida mutaxassislarni

o'qitishda “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanining ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Zero, bu fanni o'qigan bo'lajak mutaxassislar xavfning oldini olish, aholi xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Afsuski, bugun O'zbekistonda bu fanga ajratilgan dars soatlari kam va talabalarning sohani to'liq egallashi uchun yetarli emas. Holbuki, bugun jadal rivojlanish yo'lga o'tgan mamlakatimizda sanoat xavfsizligini ta'minlash, xavfsiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali ekologik muammolarni bartaraf etish dolzarb masalalardan biri bo'lib bormoqda. Hayot faoliyati xavfsizligi” fani ishlab chiqarishda, turmushimizda juda zarur bilimlar beradi. Shuning uchun bu fanni rivojlantirish, dars soatlarini kerakli darajada oshirish, kafedralarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sanoat korxonalaridagi sanoat xavfsizligi, mehnat muhofazasi bilan bog'liq muammolarni magistrlar, doktorantlarning ilmiy mavzulariga bog'lash, ularni bajarish uchun loyihalariga ko'maklashish ishlarini yo'lga qo'yish zarurdir. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida inson xavfsizligi, sog'lig'ini ta'minlash tobora murakkablashib bormoqda. Chunki biz turli xavf-xatarlarga to'la zamonda yashamoqdamiz. Sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari tahlili ularning 80 foizga yaqini inson faoliyati bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Qurbon bo'lganlarning 40 foizdan ortig'i tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sharoitiga to'g'ri baho bera olmasligi, ayniqsa, mazkur sharoitda to'g'ri harakatlanish yo'llarini topa olmasligi oqibatida noxush holatlar yuzaga keladi. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, jabrlanganlar sonini kamaytirishda aholining favqulodda vaziyatlar sharoitidagi xavfsizlik madaniyatini oshirish, xavfsizlikni samarali targ'ib qilish, o'rgatish muhimdir. Bunda esa, shu sohadagi malakali va bilimli mutaxassislarning o'rni beqiyos. Fikrimizcha, bunday tayyorgarlik doimiy, muntazam, uzluksiz tarzda oilada, mahallada, maktabgacha ta'lim muassasalarida hamda umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalarida “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanini rivojlantirish orqali amalga oshirilmog'i lozim.

Ilmiy tadqiqot natijalari: Axborot texnologiyalarining rivojlanishi yangi informatsion xavflarining paydo bo'lishiga olib keladi. Olimlar kelajakka boqib, bioenergetika, robototexnika va boshqa rivojlanayotgan fanlarning tahdid va xatarlari nimaga olib kelishi mumkinligini bashorat qilmoqdalar. Ilmiy va texnologik taraqqiyot natijasida insoniyat turli xil xavf-xatarlarga duch kelmoqda, shuning uchun jamiyat doimiy ravishda hayot faoliyati xavfsizligi muammolarini hal qilishda odamlar va atrof-muhitni turli xavf va tahdidlarning ta'siridan himoya qilishga majburlirlar. Jamiyat tan jarohatlari, aholi o'rtasida kasallik, avariylar, yong'inlar, baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar tufayli katta moddiy va ma'naviy yo'qotishlarga duch kelmoqda. Shunday qilib, o'rtacha dunyo miqyosida o'lim darajasi taxmin qilinadi. Ushbu muammoni tubdan hal qilish - bu o'zlarining xavfsizligini boshqalarning xavfsizligidan yuqori darajada, rivojlangan ma'naviy fazilatlar, ko'nikmalar va

qobiliyatlar darajasida ta'minlay oladigan xavfsiz shaklda tarbiyalashdir. Xavfsiz turdagi shaxsni shakllantirishning asosiy elementi sifatida ta'lim turadi. Ushinskiyning ta'kidlashicha, ta'lim hayotimizga tahdid soladigan xavflarni kamaytiradi, qo'rquv sabablarini qisqartiradi va xavfni o'lchash va uning oqibatlarini aniqlash imkoniyatini beradi. 1991 yilda paydo bo'lgan yangi "Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari" fani (bundan keyin - hayot faoliyati xavfsizligi) ommaviy xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va xavfsiz turni tarbiyalash uchun tan olingan inson va jamiyatning dunyoqarashini boshqarishning eng samarali vositalaridan biridir.

Xulosa: Hozirgi paytda shu narsa ma'lum bo'ldiki, xavfli tavakkalning va favqulodda vaziyatlarning kamayishini tizimli tashkil etuvchilaridan biri hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatidir. Uning shakllanish doirasida xavfsiz nusxadagi insonning hayoti, hayot faoliyati xavfsizligi sabablari rivojlanadi, muxofazalovchi chora-tadbirlarni zaruriyati, ta'sirchanligiga ishonchni muhabbat tug'diradi, o'zini xavfsiz xatti-harakati bo'yicha zaruriy bilim va ko'nikmalarini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ilmiy tadqiqot. M. Rasuleva. Hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish asoslari. Darslik, 2020.

2. Nigmatov I., Tojiev M. X. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi" Darslik.-T.: Iqtisod-moliya. 2011.

3. Tojiev M.X., Nigmatov I va b. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi". O'quv qo'llanma. –T.: MCHJ., Ta'lim manbai, 2002.

4. Yormatov G.Y. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: "Aloqachi", 2009.

5. <https://yuz.uz/uz/news/iqlim-ozgarishi>.